

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI NUKUS FILIALI**

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va
sport universiteti Nukus filiali
direktori B.K.Erimbetov



“40” 07 2025-yil

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI NUKUS FILIALIGA 2025/2026 O‘QUV YILIDA
IKKINCHI VA UNDAN KEYINGI OLIY TA’LIM BO‘YICHA
O‘QISHGA QABUL QILISH
DASTURI VA BAHOLASH MEZONLARI**

61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi

NUKUS – 2025

**O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
Ilmiy Kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan. 2025-yil ____ maydagi
____sonli majlis bayoni.**

MUNDARIJA

betlar

Kirish.....	4
Dasturning maqsadi va vazifalari.....	5
Ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limga suhbat jarayonini o'tkazish tartibi..	5
Ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limga suhbat asosida o'qishga qabul qilishda baholash mezonlari	9

2025-2026 O'QUV YILIDA IKKINCHI VA UNDA KEYINGI OLIY TA'LIM BO'YICHA O'QISHGA QABUL QILISH, BAHOLASH MEZONLARI HAMDA O'TKAZISH TARTIBI

KIRISH

Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakillantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarga o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustaxkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol topish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi xududlarida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish, mamlakatimizda bu borada yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanish natijalarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda mazkur soha rivojiga qaratilgan qator me'yoriy – huquqiy hujjatlar qabul qilingan va jadallikda hayotga tadbqiq etib kelinmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi, "Ta'lim" to'g'risidagi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ – 2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2017 yil 3 iyundagi PQ – 3031 – sonli "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi, 2017 yil 27 iyuldagi PQ – 3151-sonli "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarning ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017 yil 10 avgustdagi PQ – 3196-sonli "Nufuzli xalqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishgan O'zbekiston sportchilarini jamoat va sport ishlarida keng jalb etish hamda sportchilarni va ularning trenerlarini rag'batlantirish to'g'risida"gi, 2017 yil 10 avgustdagi PQ – 3197-sonli "O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya insituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi, 2018 yil 5 martdagi PF-5368-sonli "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-5812-sonli "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shma chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 febraldagi PQ-136-sonli ya'ni "Sportni rivojlantirish vazirligi faoliyatini tashkil yetish to'g'risida"gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021-yil 24-sentabrdagi 606-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limni olish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarorlari shular jumlasidandir.

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filialidagi Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalish bo'yicha suhbat asosida

o'qishga qabul qilish dasturi umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi (sport maktablari (SM), Respublika Olimpiy va paralimpiy zahiralar kolledji (ROPZK)) jismoniy tarbiya va sport dasturlari asosida tuzilgan, ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limga talabgorlarni bilim va kasbiy ko'nikmalarni baholashga mo'ljallangan.

Dasturda ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limga talabgorlar bilan o'tkaziladigan suhbat tartibi, talabgorlarning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablar hamda baholash mezonlari o'z aksini topgan.

Dasturning maqsadi va vazifalari

Dasturning asosiy maqsadi – ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limda jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid egallangan bilim, ko'nikma va malakalari (jismoniy va sport turlari bo'yicha umumiy ko'nikmasini) holati darajasini belgilangan mezonlar asosida aniqlash hamda baholashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021-yil 24-sentabrdagi 606-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limni olish tartibi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq 2024/2025 o'quv yilida O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filialiga ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limga Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishlari bo'yicha qabul e'lon qilingan.

Yuqoridagi ta'lim yo'nalishidan ya'ni sport faoliyati (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha) bo'yicha suhbat asosida imtihonlar o'tkaziladi.

Ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limga talabgorlar tanlangan sport turidan suhbat asosida imtihonlarni topshiradilar.

Suhbat asosida imtihonlarni o'tkazishda har bir talabgordan o'z bilim va qobiliyatini yuqori darajada namoyon qilishiga imkoniyat yaratiladi.

Sport turlari bo'yicha suhbat asosida imtihon ballarining maksimal yig'indisi (summasi) suhbat natijalariga ko'ra – 100 ballni tashkil etadi.

Tanlangan sport turi bo'yicha savol sport turlarining xususiyatlariga oid bo'ladi.

Ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limga suhbat jarayonini o'tkazish tartibi

Ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limga talabgorlarni oliy ta'lim muassasasiga o'qishga qabul qilish bo'yicha suhbat jarayoni to'liq videokuzatuv ostida o'tkaziladi.

Suhbat jarayonida talabgorlarning har biriga quydagi mavzular bo'yicha bittadan jami to'rtta savol beriladi:

- mamlakatda jismoniy tarbiya va sport, aholini sog'lomlashtirishga hamda ommaviy sportga oid amalga oshirilayotgan islohatlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish;

- ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limni (baklavriat) tanlashda maqsad va vazifalar (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish);

- shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda

amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari);

-o'z tanlangan (sport) bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va ko'nikmalarining mavjudligi.

Suhbat jarayoni quyidagi tartibda o'tkaziladi:

a) talabgor ro'yxati va pasporti tekshirilgandan so'ng u suhbat (imtihon) topshirish uchun taklif qilinadi;

b) har bir talabgorga suhbat komissiyasi raisi va a'zolari suhbat qabul qiluvchilar suhbat (imtihonlar)ni topshirish tartibi va qoidalarini tushuntiradilar;

g) har bir talabgorga suhbat (imtihon) topshirishga tayyorlanish uchun vaqt beriladi;

d) barcha savollarga javob qabul qilinganidan so'ng talabgorga suhbat (imtihon) natijasidan to'plangan umumiy ballari e'lon qilinadi;

j) suhbat (imtihon)ni qayta topshirishga ruxsat etilmaydi;

z) suhbat (imtihon)ga belgilangan muddatlarda kelmagan talabgorga shu o'quv yili uchun qayta suhbat o'tkazilmaydi.

Ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limga suhbat asosida o'qishga qabul qilish uchun tuzilgan na'munaviy "Suhbat" savollari

1. O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 4 sentyabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'RQ-394-son Qonunining asosiy tushunchalari va ularning mazmuni.
2. «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24-yanvardagi «Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5924-sonli Farmonidagi asosiy ustuvor vazifalar mazmuni.
3. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari qanday?
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi vakolatlarini yoritib bering?
5. Sportchining huquq va majburiyatlari nimalardan iborat?
6. "Besh tashabbus olimpidasi"ning mazmun-mohiyati qanday?
7. O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025 yilgacha rivojlantirish KONSEPSIYASI da ko'rsatilgan Jismoniy tarbiya va sport tizimining asosiy maqsadlari va rivojlanish yo'nalishlari qanday?
8. O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi haqida ma'lumot bering?
9. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunining mazmun-mohiyati qanday?
10. Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish va ularni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5-ta muhim tashabbusdan birinchisiga izoh bering?
11. Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish va ularni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5-ta muhim tashabbusdan ikkinchisiga izoh bering?
12. Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish va ularni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5-ta muhim tashabbusdan uchinchisiga izoh bering?
13. Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish va ularni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5-ta muhim tashabbusdan to'rtinchisiga izoh bering?
14. Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish va ularni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5-ta muhim tashabbusdan beshinchisiga izoh bering?
15. 5 tashabbus doirasida amalga oshirgan ishlaringiz yoki ishtirokingiz hamda ushbu tashabbuslarga munosabatingiz?
16. Kasbiy maxorat bu-
17. Kasbiy komponentlik nima
18. O'z ustida ishlash nima
19. Pedagogik nizo nima va u qanday yo'llar bilan hal qilinadi
20. Pedagogning o'z ustida ishlash modelida qanday holatlar aks etadi.
21. O'z o'zini baholash tushunchasi qanday manoni anglatadi.
22. Kreativlik deganda nimani tushunasiz?
23. Kreativ kompetentlikni izohlang...
24. Motivlarga- xos...
25. Motivlar bu-:
26. Sport o'yinlarida qaysi motiv ustunlik qiladi?
27. Motivasiyalardan qaysi biri sportchini yuqori natijalarga erishish uchun

da'vat etadi?

28. Shaxsning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar?
29. Qobiliyatning rivojlanishida yuzaga keladigan yashirin imkoniyat bu -
30. Uy vazifalarini tekshirish qanday imkoniyatga ega?
31. Yosh xususiyatlari.
32. Individual xususiyatlar deb -
33. Rivojlanish deb nimaga aytiladi?
34. Shaxsni har tomonlama tarbiyalashning tarkibiy qismlari bular.
35. Bola shaxsining rivojlanishida tarbiyaning ta'siri nimada namoyon bo'ladi?
36. Bola shaxsining rivojlanishida har tomonlama kuchli ta'sir etuvchi omil

nima?

37. Shaxsning mutaxassis sifatida kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o'z mohiyatiga ko'ra jarayon tarzda namoyon bo'ladi. Kasbiy etuklik inson ontogene- zining muhim davrlari kasbiy kamol topish, rivojlanish g'oyalarining qaror topishi (.....yosh)dan boshlanib, kasbiy faoliyatning yakunlanishi (.....yosh)gacha bo'lgan jarayonda kechadi.

38. Sport faoliyatida ijodkorlikning qanday sifatlari bor?
39. Ta'lim jarayonini mazmunini boyituvchi manba:
40. O'zlashtirish jarayoning asosiy zvenolari:
41. O'qitishning og'zaki usuli qo'yidagilarga bo'linadi:
42. Kasbiy-pedagogik bilimdonlik asosan to'rtta komponenti bilan

xarakterlanadi:

43. Jismoniy tarbiya o'qituvchisining mahorati komponenti.
44. Tarbiyaning an'anaviy usullari -
45. O'qituvchi pedagogik qobiliyatini namoyon etuvchi xususiyatlarini

belgilang:

46. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
47. Tarbiya jarayoni qanday tamoyillar asosida tashkil etiladi?
48. Tarbiya metodlari nima?
49. Tarbiya metodlari qanday turlarga ajratiladi?
50. Qanday metodlar ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar sanaladi?
51. Qanday metodlar ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar sirasiga kiradi?
52. Yosh avlod uchun qanday pedagogik hodisalar namuna bo'la oladi?
53. Pedagogik talab nima?
54. Tarbiya jarayonida rag'batlantirishning qanday turlaridan foydalaniladi?
55. Tarbiya jarayonida rag'batlantirish metodlarini samarali qo'llash uchun

nimalarga e'tibor qaratilishi lozim?

56. Jismoniy tarbiyani tashkil etishda qanday maqsad ko'zlanadi?
57. Jismoniy tarbiyani tashkil etish jarayonida qanday vazifalar hal qilinadi?
58. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida yosh avlodni jismonan sog'lom bo'lishini ta'minlovchi qanday tizim ishlab chiqildi?
59. Qanday sifatlar shaxsning jismoniy kamolotga egaligini ifodalaydi?
60. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirish qanday faoliyat sanaladi?

2025-2026 o'quv yili qabuli uchun ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limga suhbat asosida o'qishga qabul qilishda baholash mezonlari

Asosiy qoidalar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021-yil 24-sentabrdagi 606-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limni olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori va shu qaror asosida tasdiqlangan nizomning 2-bob 9-bandga muvofiq o'tkaziladi.

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filialida 61010200 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) suhbat o'tkazish belgilangan.

Ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limni baholashda quyidagi mavzular bo'yicha bittadan jami to'rtta savol beriladi:

- mamlakatda jismoniy tarbiya va sport, aholini sog'lomlashtirishga hamda ommaviy sportga oid amalga oshirilayotgan islohatlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish;

- ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limni (baklavriat) tanlashda maqsad va vazifalar (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish);

- shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari);

- o'z tanlangan (sport) bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va ko'nikmalarining mavjudligi.

Ushbu reyting baholash me'zoni 61010200 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) suhbat o'tkazish bo'yicha talabgorlar o'z ta'lim yonalishlari va sohalari bo'yicha fanlaridan bilimini nazorat qilish hamda baholash uchun mo'ljallangan. Ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limni suhbat asosida bilimlarini reyting tizimi bo'yicha baholashda quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

- talabgorlarini ta'lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilish;

- o'z sohalari bo'yicha bilimi, ko'nikma va malakalarini fanlardan qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlash.

Suhbat jarayonini baholash tartibi va mezonlari

Ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limga talabgorlarini baholashda 61010200 - Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) suhbat 100 ballik reyting nazorat tizimi asosida baholanadi.

Bunda talabgor suhbat bo'yicha to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball, ya'ni 100 ball quyidagicha taqsimlanadi:

- mamlakatda jismoniy tarbiya va sport, aholini sog'lomlashtirishga hamda ommaviy sportga oid amalga oshirilayotgan islohatlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish - 0-25 ball;

- ikkinchi va undan keyingi oliy ta'limni (baklavriat) tanlashda maqsad va vazifalar (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish) - 0-25 ball;

-shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari) - 0-25 ball;

-o'z tanlangan (sport) bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va ko'nikmalarining mavjudligi- 0-25 ball.

Talabgorni suhbat (imtihon) natijalarini baholashda quyidagi mezonlarga amal qilinadi:

a) 86-100 ball uchun talabgorning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- xulosa va qaror qabul qilish;
- ijodiy fikrlay olish;
- mustaqil mushohada yurita olish;
- olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo'lish.

b) 71-85 ball uchun talabgorning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- mustaqil mushohada yurita olish;
- olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo'lish.

v) 56-70 ball uchun talabgorning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo'lish.

g) quyidagi hollarda talabgorning bilim darajasi 0-55 ball bilan baholanishi mumkin:

- aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;
- bilmaslik.

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'iga asosan Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a'zolari tomonidan qo'yilgan ballarning o'rtachasi (56 ball bilan baholanadi) hamda suhbatdan o'tgan xisoblanadi.

Ushbu 56 (ellik olti) balldan past ball olgan talabgor suhbatdan o'tmagan hisoblanadi.